MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTONDA KREDIT BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR 9
Javlanova Shaxnoza Djalolitdinovna
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AYOLLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH 14
Babaraimova Gulmira Zakirovna
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 20
Fazliyev Farrux Faxriddinovich
TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH 26
Jo‘rayev Eldor Berdibekovich
ELEKTROTEXNIKA SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIK IMKONIYATLARI 32
Bahodirov Jahongir Bahodir o‘g‘li
SANOAT KORXONALARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DARAJASINI BAHOLASH VA UNING MOLIYAVIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 37
Omanov Behzod, Hoshimjonov Ahrorjon
MINTAQAVIY INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY VA TARMOQ TARKIBINI BAHOLASH: DINAMIK TENDENSIYALAR VA NOMUTANOSIBLIKLAR 43
Qodirqulov Xumoyun Mirzo Voxid o‘g‘li
HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
ANALYSIS OF EXISTING MARKETING INSTRUMENTS FOR THE PROMOTION OF UNIVERSITY EDUCATIONAL SERVICES: STAGE REACH, THE COST-EFFICIENCY INVERSION, AND THE ABSORPTIVE CAPACITY CONSTRAINT 53
Shuhrat Bahodir o‘g‘li Umarov
WORKLOAD MANAGEMENT AS A MECHANISM FOR ENHANCING ACADEMIC STAFF PERFORMANCE IN HIGHER EDUCATION 65
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila
XIZMATLAR SEKTORIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 73
Tursunova Shahlo Sayfillayevna
SUN’IY INTELLEKT VA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGI 79
Madrahimova Onajon Javlon qizi
MINTAQAVIY INVESTITSIYALARNING KAMBAG‘ALLIKKA TA’SIRINI UZATISH MEXANIZMLARI 83
Nabiyev Olimjon Abdisalomovich
RAQAMLI IQTISODIYOT VA AUDIT 90
Yariyev Sherzod Shukurjanovich
GIDROENERGETIKA INVESTITSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI 94
Xusanov Shaxbozbek Shuxratjon o‘g‘li
KORXONALARDA RAQAMLI BOSHQARUV INFRATUZILMASINING RIVOJLANISH DARAJASI TAHLILI . 100
Anvarova Lobarxon Sherzod qizi
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI 108
Ochilov Shoxrux Ne’matulla o‘g‘li
IQTISODIY-DEMOGRAFIYANING MAZMUN-MOHIYATI VA UNI SHAKLLANISHI TO‘G‘RISIDAGI ILMIY YONDASHUVLAR 115
Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich

IQTISODIY-DEMOGRAFIYANING MAZMUN-MOHIYATI VA UNI SHAKLLANISHI TO‘G‘RISIDAGI ILMIY YONDASHUVLAR

Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchi
E-mail: jorabeksaidov3@gmail.com
ORCID: 0009-0004-5435-5998

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy demografiyaning mazmun-mohiyati, uning tadqiqot obyekti va predmeti hamda shakllanish bosqichlari yoritiladi. Aholi soni, tarkibi va takror barpo bo‘lish jarayonlarining iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy demografiyaning shakllanishiga doir ilmiy yondashuvlar, asosiy nazariy qarashlar va ularning amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari demografik jarayonlarni iqtisodiy omillar bilan uyg‘un holda o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy demografiya, aholi, demografik jarayonlar, aholi takror barpo bo‘lishi, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, mehnat resurslari, iqtisodiy rivojlanish, ilmiy yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье раскрыта сущность экономической демографии, объект и предмет ее исследования, этапы ее становления. Анализируется связь численности, структуры и процессов восстановления населения с экономическим развитием. Также рассмотрены научные подходы к формированию экономической демографии, основные теоретические взгляды и их практическое значение. Результаты исследования обосновывают необходимость изучения демографических процессов в гармонии с экономическими факторами.

Ключевые слова: экономическая демография, население, демографические процессы, воспроизводство населения, рождение, смерть, миграция, трудовые ресурсы, экономическое развитие, научные подходы.

Abstract: This article examines the essence of economic demography, its object and subject of study, and the stages of its formation. It analyzes the interrelationship between population size, composition, and reproduction processes and economic development. Furthermore, the article reviews scientific approaches and key theoretical perspectives regarding the formation of economic demography, as well as their practical significance. The research findings substantiate the necessity of studying demographic processes in conjunction with economic factors.

Keywords: economic demography, population, demographic processes, population reproduction, fertility, mortality, migration, labor resources, economic development, scientific approaches.

KIRISH

Mintaqaning demografik va iqtisodiy rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan demografik va iqtisodiy jarayonlar zanjirlari bilan tasdiqlanishi mumkin. Bunday zanjirning har bir bo‘g‘ini ko‘rsatkichlar tizimi, uning o‘zgarishlar vektori va tendensiyalari bilan tavsiflanishi mumkin. Ushbu tendensiyalarni prognoz qilish orqali ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda hududiy rivojlanishning konseptual modelini qurish mumkin. Aynan mintaqalar milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlarini, unga xos xususiyatlarini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Bunda mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar, demografik vaziyat va inson resurslari, ma’muriy-hududiy tuzilmalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Demografiya paydo bo‘lganidan beri texnik usullarning keng ko‘lamli rivojlanishi va qo‘llanilishi ushbu sohaning asosiy tayanchi bo‘lib kelgan va uni boshqa ijtimoiy fanlardan ajratib turadi”[1].

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son[2] qarorida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni tashkil etish, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish darajasi va talab-ehtiyojini inobatga olgan holda, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan.

Iqtisodiy-demografik jarayonlar aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlar bilan iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi

1 S.H. Preston. The contours of demography: estimates and projections. *Demography*, 30 (1993), pp. 593–606.
2 https://lex.uz/docs/-3302438

o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Biroq ushbu jarayonlarni o‘rganishda demografik ko‘rsatkichlar ko‘pincha iqtisodiy omillardan alohida tahlil qilinadi. Natijada tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, aholining yosh va jins tarkibi kabi omillarning mehnat bozori, ishlab chiqarish, daromadlar va hududiy taraqqiyotga ta’sirini yaxlit baholash qiyinlashadi[3].

Tadqiqotning asosiy muammosi — iqtisodiy va demografik jarayonlarning o‘zaro ta’sirini izohlovchi yagona nazariy-metodologik yondashuvni aniqlash, iqtisodiy-demografiyaning shakllanishiga asos bo‘lgan ilmiy qarashlarni tizimlashtirish hamda ularning zamonaviy sharoitdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotda iqtisodiy-demografiyaning mazmun-mohiyati va shakllanish bosqichlarini ochib berish uchun tizimli, tarixiy-qiyosiy va fanlararo yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tizimli yondashuv demografik jarayonlarni iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida o‘rganishga imkon beradi. Tarixiy-qiyosiy yondashuv esa iqtisodiy-demografik qarashlarning turli davrlarda rivojlanishini va ilmiy maktablar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodiy tahlil demografik o‘zgarishlarning ishlab chiqarish, bandlik, daromad va iste’molga ta’sirini baholashda qo‘llanadi. Demografik yondashuv esa aholi soni, tarkibi, tabiiy harakati va migratsiyasidagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlarni uyg‘unlashtirish iqtisodiy-demografik jarayonlarni yaxlit anglash, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash hamda tegishli xulosalar ishlab chiqishga yordam beradi[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klassik va zamonaviy yondashuvlar. Aholi soni va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan birinchilardan bo‘lib o‘rgangan tadqiqotchilardan biri T.R. Maltus bo‘lib, u o‘zining asarlarida aholi o‘sishining iqtisodiy resurslar cheklanganligidan oldinda ketishi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishini ta’kidlagan[5]. Keyinchalik bu qarashlar zamonaviy iqtisodchilar tomonidan qayta ko‘rib chiqilib, aholi demografik tuzilmasining iqtisodiyotga ta’siri kengroq yoritildi.

Demografik o‘tish nazariyasi va iqtisodiy rivojlanish. A. Cowell va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida demografik o‘tish jarayonlari va uning milliy iqtisodiyotga ta’siri chuqur tahlil qilingan. Xususan, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi mamlakatdagi mehnat resurslari salohiyatini belgilashda asosiy omil ekanligi isbotlab berilgan[6].

Sanoatlashuv va hududiy demografik jarayonlar. Mintaqaviy iqtisodiyot va aholi joylashuvi masalalarini o‘rgangan olimlar mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va hududiy demografik siyosatni shakllantirish bo‘yicha muhim nazariy xulosalarni ilgari surishgan[7]. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish sur’atlari bevosita hududning demografik salohiyati va uning sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liqdir.

Mahalliy olimlarning ilmiy hissasi. O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham iqtisodiy demografiyaning shakllanishi, aholi bandligini ta’minlash va inson kapitalini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida demografik jarayonlarni modellashtirish va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini baholash bo‘yicha qator ilmiy ishlar olib borilgan[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada “Iqtisodiy-demografiyaning mazmun-mohiyati va uni shakllanishi to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvlar” mavzusini chuqur, har tomonlama va ilmiy jihatdan asoslangan holda yoritish maqsadida zamonaviy iqtisodiy fanlar metodologiyasiga tayanildi. Tadqiqot jarayonida jamiyat va iqtisodiyotdagi demografik jarayonlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari hamda bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalari dialektik yondashuv asosida tadqiq qilindi.

Ilmiy ishning metodologik asosi sifatida obyektivlik, ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari tanlab olindi. Ushbu tamoyillar iqtisodiy-demografik jarayonlarni bir-biridan ajratmagan holda, ularning yagona yaxlit tizim sifatida bir-biriga ta’sirini ochib berish imkonini berdi. Maqolaning mazmunini ochishda quyidagi fundamental ilmiy usul va yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot-empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasining demografik siyosatiga oid qonunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Statistika agentligining rasmiy ma’lumotlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari tashkil etdi. Shuningdek, mavzu bo‘yicha nufuzli ilmiy jurnallarda e’lon

3 Birlashgan Millatlar tashkiloti, iqtisodiy va ijtimoiy ishlar bo’limi. Dunyo Aholisining Istiqbollari.https://population.un.org/wpp/

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Demografik ko‘rsatkichlar. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2

5 Malthus, T.R. *(1798)*. An Essay on the Principle of Population. London: J. Johnson.

6 Cowell, A. et al. *(2018)*. Demographic Transition and Economic Growth Dynamics. New York: Academic Press, p. 45–60.

7 Islomov, B.I. *(2021)*. Mintaqaviy iqtisodiyot va demografik jarayonlar. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 112-b.

8 Qodirov, Sh.A. *(2023)*. Aholi bandligi va inson kapitalini rivojlantirishning demografik omillari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, 4-son, 78–85-betlar.

qilingan xorijiy va mahalliy olimlarning monografiyalari, ilmiy maqolalari hamda tezislari nazariy manba sifatida xizmat qildi.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot uch bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda mavzuga oid adabiyotlar va nazariy yondashuvlar to‘planib, o‘rganib chiqildi; ikkinchi bosqichda tahliliy ma’lumotlar asosida iqtisodiy-demografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi; uchinchi bosqichda esa olingan natijalar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi (1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiy-demografik jarayonlarni tadqiq etishda foydalanilgan ilmiy usullar va ularning tavsifi[9][10]

T/r	Ilmiy usul nomi	Tadqiqotda qo‘llanilish yo‘nalishi va vazifasi	Olingan ilmiy-amaliy natija
1.	**Tizimli yondashuv** (Systems approach)	Iqtisodiy-demografik jarayonlarni murakkab, o‘zgaruvchan va o‘zaro ta’sir qiluvchi yaxlit tizim sifatida o‘rganishda qo‘llanildi.	Aholi sonining o‘sishi, tarkibiy o‘zgarishlar, mehnat resurslari salohiyati va milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqliklar ochib berildi.
2.	**Qiyosiy va qiyosiy-tarixiy tahlil** (Comparative and comparative-historical analysis)	Iqtisodiy-demografiyaning shakllanishi va rivojlanishiga doir klassik iqtisodiy maktablar vakillari hamda zamonaviy tadqiqotchilarning qarashlarini o‘zaro qiyoslashda foydalanildi.	Turli davrlardagi ilmiy yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning asosiy afzalliklari va cheklangan jihatlari aniqlandi.
3.	**Mantiqiy mushohada va ilmiy abstraktlashtirish** (Logical reasoning and scientific abstraction)	Mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirish, ikkinchi darajali tafsilotlardan voz kechgan holda asosiy qonuniyatlarni yuzaga chiqarishda qo‘llanildi.	Muallif tomonidan iqtisodiy-demografiyaning mazmun-mohiyatini chuqur ochib beruvchi nazariy xulosalar va umumlashmalar shakllantirildi.
4.	**Guruhlash va tasniflash usuli** (Classification and grouping)	Aholi takror barpo etilishi, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya va ularning iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish omillarini mantiqiy guruhlarga bo‘lishda foydalanildi.	Demografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimlashtirilib, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni tasniflandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar va qiyosiy o‘rganishlar iqtisodiy-demografiyaning mazmun-mohiyati, uning shakllanish bosqichlari hamda milliy iqtisodiyot bilan o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini ochib berishga imkon berdi. Olingan ilmiy natijalar va ular bo‘yicha muhokamalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Iqtisodiy-demografik yondashuvlarning evolyutsion rivojlanishi. Ilmiy adabiyotlar tahlili va qiyosiy yondashuv shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy demografiya fanining shakllanishi uzoq tarixiy davrni bosib o‘tgan. Dastlabki klassik qarashlarda (xususan, T. Maltus va uning izdoshlari nazariyalarida) aholi o‘sishi va iqtisodiy resurslar (oziq-ovqat, moddiy ne’matlar) o‘rtasidagi nomutanosiblikka ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lib, demografik jarayonlarga ko‘proq cheklovchi omil sifatida qaralgan. Biroq, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda bu qarashlar tubdan o‘zgarib, inson kapitali va demografik dividend tushunchalari oldinga chiqdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aholi sonining ko‘payishi faqatgina iste’mol hajmini oshiribgina qolmay, balki mehnat bozorini sifat jihatidan boyitish, intellektual salohiyatni kengaytirish va ichki bozorni faollashtirish orqali iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylanishi isbotlandi.

2. Aholi takror barpo etilishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik. Tizimli yondashuv asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari mamlakatning mehnat resurslari tuzilmasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Aholining yosh-jinsiy tarkibidagi o‘zgarishlar (xususan, mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi) iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, demografik o‘tish bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab farqlanadi. Sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari kuchaygan hududlarda demografik tuzilmaning o‘zgarishi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga xizmat qiluvchi zamonaviy kasb-hunar egalariga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.

3. Migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy ta’siri. Tadqiqotda migratsiya va urbanizatsiya omillarining iqtisodiy-demografik tizimdagi o‘rni ham atroflicha muhokama qilindi. Shaharlashuv jarayonining

9 Raxmatullayev, D.A. *(2026)*. Aholi jarayonlari va iqtisodiy o‘sishning o‘zaro bog‘liqlik mexanizmlari. Ilmiy axborotnoma, 2-son, 45–50-betlar.

10 O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. *(2025–2026)*. Demografik ko‘rsatkichlar va mehnat bozori tahlili. Toshkent.

jadallashuvi ishchi kuchining hududiy taqsimotini o‘zgartirib, xizmat ko‘rsatish sohasi, sanoat va innovatsion klasterlarning rivojlanishiga turtki berishi aniqlandi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi jarayonlari milliy iqtisodiyotda daromadlar oqimini diversifikatsiya qilish, aholining xarid qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatib o‘tildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Iqtisodiy-demografiyaning mazmun-mohiyati va uni shakllanishi to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvlar” mavzusidagi ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholi jarayonlari va milliy iqtisodiyot taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular doimiy ravishda bir-biriga ta’sir ko‘rsatib boradi. Mazkur mavzuni o‘rganish davomida quyidagi asosiy ilmiy xulosalarga erishildi:

Nazariy evolyutsiyaning ahamiyati. Iqtisodiy-demografik yondashuvlar klassik qarashlardan (aholi o‘sishini cheklovchi omil sifatida ko‘rishdan) butunlay farqli o‘laroq, bugungi kunda inson kapitali, intellektual salohiyat va demografik dividend g‘oyalariga tayanadi. Bu esa aholi sonining o‘sishini iqtisodiy o‘sishni tormozlovchi emas, balki uni harakatga keltiruvchi asosiy drayverlardan biri sifatida baholash imkonini berdi.

Metodologik asoslarning pishiqligi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan tizimli yondashuv, qiyosiy-tarixiy tahlil hamda ilmiy abstraktlashtirish usullari demografik o‘tish bosqichlari, mehnat resurslari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi sababiy bog‘liqliklarni to‘laqonli ochib berishga xizmat qildi.

Amaliy ahamiyati. Aholi takror barpo etilishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda demografik omillarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Mehnat bozorini sifat jihatidan boyitish va inson kapitalini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy barqarorlikning garovidir.

Umuman olganda, olingan natijalar va ilmiy yondashuvlar iqtisodiy-demografiya sohasidagi nazariy qarashlarni yanada boyitish bilan birga, kelgusida mamlakatimizda amalga oshiriladigan hududiy rivojlanish va demografik siyosatga oid strategik qarorlarni qabul qilishda muhim ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. OECD. Impact of Transport Infrastructure Investment on Regional Development. OECD Publishing, Paris, 2002.
2. OECD. Transport Bridging Divides: Transport Infrastructure Trends and Regional Development. OECD Publishing, 2020.
3. Łęczycki M., et al. Transport Infrastructure and Regional Development: A Survey of Literature on Wider Economic and Spatial Impacts. Sustainability, 2023, 15(1), 548.
4. Lavrinenko P.A., Romashina A.A., Stepanov P.S., Chistyakov A.A. Transport Accessibility as an Indicator of Regional Development. Studies on Russian Economic Development, 2019, 30(6), 694–701.
5. López E., Monzón A., Ortega E., Mancebo S. Traffic congestion and spatial spillovers of transport infrastructure investment. Journal of Transport Geography, 2010, 18(1), 141–152.
6. Rokicki B., Stępniak M. Major transport infrastructure investment and regional economic development – An accessibility-based approach. Journal of Transport Geography, 2018, 72, 36–49.
7. Raxmatullayev, D. A. (2025). Qashqadaryo viloyati sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va ularni ekonometrik modellar yordamida baholash. Экономика и социум, (11-2 (138)), 454–457.
8. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Volume of Transport Services. SIAT statistical database, 2026.
9. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Gross Regional Product of the Republic of Uzbekistan. Official statistical publications, 2026.
10. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. 2025.
11. Duran-Fernandez R., Santos G. A regional model of road accessibility in Mexico: accessibility surfaces and robustness analysis. Research in Transportation Economics, 2014, 46, 55–69.
12. Raxmatullayev, D. (2025). Sanoatni milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va uni innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(12).

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100